



Xonqa tumani Axborot – kutubxona markazi

Axborot – bibliografiya xizmati

“Ma’naviyatimiz yuksak – kelajagimiz buyuk” mavzusida

Esdalik



2025 - yil

Ma'naviyat — har bir xalq va insonning ruhiy poydevori, uning hayotiy yo'li va kelajagi uchun muhim omildir. Agar millatning ma'naviyati yuksak bo'lsa, u o'z qadriyatlariga sodiq qoladi, mustahkam va barqaror jamiyat quradi. Shu bois, ma'naviyatimizni rivojlantirish — kelajagimizni buyuk qilishning asosi hisoblanadi.

Yuksak ma'naviyat insonni ezgu fazilatlar — halollik, mehr-shafqat, sabr-toqat, fidoyilik kabi xislatlarga yetaklaydi. Bu fazilatlar nafaqat shaxsni, balki butun jamiyatni yanada kuchliroq va bardavom qiladi. Ma'naviyat orqali yosh avlod o'z milliy qadriyatlarini anglaydi, ona tilini, tarixini va madaniyatini hurmat qiladi.

Zamonaviy dunyoda ma'naviyatning ahamiyati yanada oshmoqda. Texnologiyalar tez rivojlanar ekan, insoniyat ruhiy boylik va axloqiy qadriyatlarni yo'qotib qo'yishi mumkin. Shu bois, ma'naviyatimizni saqlab qolish va yuksaltirish har birimizning eng muhim vazifamizdir. Oila, maktab va jamiyat bu borada asosiy rol o'ynaydi.

Agar ma'naviyatimiz barqaror bo'lsa, biz kelajakda buyuk yutuqlarga erisha olamiz. Yuksak ma'naviyat yuksak kelajakning kafolatidir. Shuning uchun har birimiz o'zimizning ma'naviy olamimizni boyitishga intilishimiz, yaxshi odatlarni shakllantirishimiz va milliy qadriyatlarimizga sodiq qolishimiz kerak.

Ma'naviyat va ma'rifat uyg'unligi – 1) ma'naviyatning ma'rifiy jarayonlar bilan uzviy aloqadorligini, inson ma'naviyatining u tomonidan o'zlashtiriladigan bilimlar, amaliy tajriba va ko'nikmalar hosil qilinishi, shaxsning ilmiy-ijodiy kamoloti bilan bog'liqligini ifodalovchi tushuncha; 2) muayyan shaxs, ijtimoiy guruh, jamiyat va davlat hayotiga xos faoliyatda, urf-odat va an'analarida, ta'lim-tarbiya tizimida ma'naviy omillarning bilim va tafakkur rivoji bilan mushtarakligini ifodalovchi tushuncha. Ma'naviyat va ma'rifat uyg'unligi o'zbek xalqining ko'p ming yillik tarixi davrida doimo uning eng kuchli o'ziga xos xususiyati bo'lib kelgan. Chunki, qadim-qadimdan O'zbekiston sivilizatsiyasining asosi, poydevorini ma'naviyat, ma'rifat va axloq qadriyatlari tashkil etgan va bu tushunchalarni bir-biridan ajralgan holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Ma'naviyat va ma'rifat uyg'unligi jamiyat, xalq kamolotining bosh omillaridan biri hisoblanadi. Ma'rifat ham o'z navbatida madaniyat, ma'naviyat tushunchalari bilan chambarchas bog'liq, ular uyg'un ravishda qo'llanadi. Chunki, ma'rifat-ma'naviyatga olib keladigan yo'l, uni shakllantiruvchi vositadir. Ma'naviyat va ma'rifat uyg'unligi tarixi jamiyat tarixining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Ma'naviyat va ma'rifat uyg'unligi ma'naviy qaramlikni bartaraf etuvchi kuch, u insonga aqliy, ruhiy quvvat baxsh etadigan omil sifatida namoyon bo'ladi. U kishilarni jaholat changalidan qutqaradi, buzuq, yomon, gunoh ishlardan qaytaradi, ezgu xulq va odob egasi bo'lishga ko'maklashadi. Faqatgina chinakam ma'naviyat va ma'rifat uyg'unligiga erishgan odam inson qadri, millat qadriyatlari, bir so'z bilan aytganda,

o'zligini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatida o'ziga munosib, obro'li o'rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin. Shu sababga ko'ra, ma'rifatli kishilardan tashkil topgan jamiyat ravnaq topadi, kelajagi porloq bo'ladi. Masalan, sohibqiron Amir Temur zamonida xalqimiz ma'naviyat-ma'rifat borasida jahonda dong taratgani bejiz emas. Ma'naviyat sermazmun tushuncha bo'lib, maorif uni yoyish, kishilar ongi va qalbiga singdirish vositasidir. Ma'naviyatni hayotga singdirish faqat maorif orqaligina emas, ma'rifat o'choqlari, turli ijodiy uyushmalar, tashkilot, muassasalar, OAV va boshqa tizimlar orqali amalga oshiriladi. Bu esa ma'naviyat va ma'rifat uyg'unligini ta'minlaydi, xalq ma'naviyati va ma'rifatining yuksalishiga imkon beradi. Ma'naviyat va ma'rifat uyg'unligi yo'lida har kim o'z iqtidori, iste'dodi, qobiliyati, intilishiga yarasha ma'lum bir darajaga erishadi. Ammo, ma'naviy kamolot jamiyatda faqat tor doirada qolib ketsa, ma'naviy-ma'rifiy daraja umumijtimoiy ijobiy, ilg'or harakatlarga chorlovchi o'zgarishlarga olib kelmasa, hayot uyg'unligi, muvozanati buziladi. Shu sababga ko'ra ma'rifat tarqatish yo'li bilan siyosat va iqtisod sohalarida umumijtimoiy o'zgarishlar sodir bo'lishiga erishish ma'naviyat ahlining mas'uliyati, ma'naviyat, ma'rifatni targ'ib-tashviq etish har bir ziyolining vijdon ishidir. Chunki chinakam ma'rifatli insonlarga o'z yurtini taraqqiy toptirishga, uni ko'z qorachig'idek asrab-avaylashga, dunyoda o'ziga munosib o'rin egallashga qodir bo'ladi. Bu esa ustoz va murabbiylar, otanonalar, butun jamiyat zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Yoshlarga ta'lim-tarbiya beradigan, ularni ma'naviyat-ma'rifatga chorlaydigan ustozlar hurmatini joyiga qo'yish, ularga munosib sharoit yaratib berish – eng dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Shu bilan birga, bu sohada muammolar ham yo'q emas. Sho'ro zamon asoratlari, o'sha davr tarbiyasi hamon miyasi, ongu shuurida saqlanib kelayotgan ayrim amaldorlar faoliyati ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy sohalaridagi islohotlarga to'siq bo'lmoqda.

Buyuk ma'rifatparvar Abdulla Avloniy: "... Ma'rifatli xalq shijoatli bo'lur. Shijoat qalbning matonatidan, ruhning salomatligidan iboratdir. Maorifdan, funundan va madaniyatdan mahrum bo'lgan xalq jaholat panjalarining orasida xamir kabi ezilgandek, a'fali zamirida ham o'z nafsining yoqasini bo'shata olmas... Zeroki, jaholat va qo'rqinch, faqir va muhtojlikdan ziyoda dahshatli bir musibatdir", degan edi. Afsuski, sobiq Ittifoq zamonida xalqimiz ana shunday girdobga tushib qolgan edi. Mustamlaka tuzumi qoldirgan og'ir asoratlarni bartaraf etishning asosiy shartlaridan biri jamiyatda ma'naviyat va ma'rifat uyg'unligiga erishishdir. Chunki, ma'naviyat va ma'rifat uyg'unligi – qullik tafakkurining kushandasi, u ma'naviy qaramlik, qo'rquv va hadikni bartaraf qiladi, insonga beqiyos ilohiy qudrat, mislsiz salohiyat ato etadi. "Iqtisodiy islohotlarni hal etish mumkin. Xalqning ta'minotini ham amallab turish mumkin. Ammo ma'naviy islohotlar, qullik va mutelik iskanjasidan ozod bo'lish, qadni baland tutish, ota-bobolarimizning udumlarini tiklab, ularga munosib voris bo'lish – bu dunyoda bundan ortiqroq va bundan sharafliroq vazifa yo'q". Yurtboshimiz tomonidan istiqlolni dastlabki yillaridayoq ilgari surilgan bu fikr xalqimizni ma'rifiy uyg'oqlikka chorlash yo'lidagi davat sifatida yangragan edi. Yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida

jamiyatimiz ozod va erkin istiqbol sari yuz tutdi, ma'naviyat va ma'rifatni rivojlantirish davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishiga aylandi. Chunki, insonning, xalqning, jamiyatning va davlatning kuch-qudrati fuqarolarning ma'naviy-ma'rifiy darajasi bilan baholanadi.

Xulosa qilib aytganda, ma'naviyatimiz qanchalik yuksak bo'lsa, kelajagimiz shunchalik buyuk va yorqin bo'ladi. Shu sababli, biz har doim ma'naviyatimizni rivojlantirishga e'tibor qaratib, uni avaylab saqlashga harakat qilishimiz lozim.